



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 28 mart, № 63 (8686)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini
telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI AQSH PARLAMENTI DELEGATSIYALARINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27-mart kuni AQSHning senator Stiven Deyns hamda Vakillar palatasi qo'mitasi raisi, kongressmen Mayk Rojers boshchiligidagi delegatsiyalarini qabul qildi.



O'zbekiston — AQSH strategik sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Keyingi yillarda ikki tomonlama hamkorlikda yuqori darajaga erishilgani, faol muloqotlar va o'zaro tashriflar davom etayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. O'tgan yilning sentyabr oyida Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSH yetakchilarining "S5+1" formatidagi birinchi sammiti hamda samarali ishbilarmonlik uchrashuvlari muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari parlamentlararo aloqalarni, shu jumladan, AQSH Kongressida faoliyat yuritayotgan O'zbekiston bilan hamkorlik bo'yicha kokus ishini yuqori baholadi.

O'zaro tovar ayirboshlash hajmi oshib bormoqda, 2023-yil yakunida u 30 foizga oshdi. O'zbekiston bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan AQSH kompaniyalari soni ortmoqda. Misol tariqasida mamlakatimizda qiymati 10 milliard dollardan ziyod bo'lgan investitsiya loyihalarini amalga oshirayotgan "Air Products" kompaniyasining faoliyati qayd etildi.

Amerikalik qonun chiqaruvchilar vakillik qilayotgan Montana, Alabama, Vashington, Kaliforniya va Texas shtatlari bilan faol amaliy hamkorlikni davom ettirishga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'lim, qishloq xo'jaligi, raqamli texnologiyalar, tog'-kon sanoati, "yashil" energetika, farmatsevtika, oziq-ovqat tarmog'i va boshqa sohalar kooperatsiya uchun istiqbolli yo'nalishlar sifatida qayd etildi. AQSH hududlari biznesining O'zbekistonga safarlarini tashkil etishga kelishib olindi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar, shu jumladan, Afg'onistondagi vaziyat yuzasidan ham fikr almashildi.

O'zA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

E'tirof

PARLAMENTLARARO ITTIFOQ YUBILEY ASSAMBLEYASI YURTIMIZDA BO'LIB O'TADI

Bugun dunyoning turli mintaqalarida kechayotgan beqarorlik, murakkab geosiyosiy jarayonlar, keskinlik va jahon miqyosida kuchayib borayotgan iqtisodiy tanglik sharoitida faol tashqi siyosat orqali xalqaro maydonda milliy manfaatlarni samarali ilgari surish muhim ahamiyatga ega.

Ana shunday murakkab sharoitda O'zbekistonning tamomila yangicha mazmun kasb etayotgan faol va pragmatik tashqi siyosati bois mamlakatimiz jahon siyosat markazlaridan biriga va global tashabbuslar muallifiga aylanib borayotgani e'tiborga molik.

Bu jarayonda mamlakat parlamenti ham faol qatnashmoqda. Xususan, yirik xalqaro parlament tuzilmalarining to'laqonli a'zosi sifatida nufuzli anjumanlarga mezbonlik qilib, muhim taklif va tashabbuslarni ilgari surib kelayotir.

Parlamentlararo Ittifoq (PI) bilan hamkorlikda Buxoro shahrida Barqaror rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan xalqaro parlament forumi hamda Toshkent shahrida Parlamentlararo Ittifoqqa a'zo davlatlar parlamenti ayol rahbarlari 14-sammitining muvaffaqiyatli o'tkazilgani bunga yorqin misol bo'la oladi.

Ma'lumki, Prezident Shavkat Mirziyoyev Parlamentlararo Ittifoq 150-yubiley assambleyasini O'zbekistonda o'tkazish tashabbusini bildirgan edi.

Kuni kecha Shveysariyaning Jeneva shahrida Parlamentlararo Ittifoq bosh kotibi Martin Chungong va Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva o'rtasida Plning 150-yubiley assambleyasini 2025-yilda O'zbekistonda o'tkazish to'g'risidagi bitim imzolandi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, jahondagi 180 ta parlamentni birlashtirgan ushbu nufuzli tuzilma o'zining yuqori organi — assambleyani parlamentarizm va barqaror rivojlanishning ijobiy tajribasi mavjud bo'lgan mamlakatlardagina o'tkazadi.

Assambleyaning ilk bor Markaziy Osiyo mintaqasida, O'zbekistonda o'tkazilishini Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida yurtimizda olib borilayotgan demokratik islohotlar va parlamentarizmi rivojlantirish yo'lidagi sa'y-harakatlarning jahon hamjamiyati tomonidan o'ziga xos e'tirofi, deyish mumkin.

Mintaqamizda bu yo'nalishdagi keng ko'lamli tadbir ilk bor yurtimizda o'tkazilayotgani milliy parlamentimizning BRMni amalga oshirishdagi faolligi, normativ-huquqiy bazani xalqaro standart asosida takomillashtirish, parlament darajasida inson huquqlarini himoya qilish va gender tengligi masalalarini ilgari surish, Yoshlar parlamenti doirasida yoshlarni qonun ijodkorligi faoliyatiga keng jalb etish borasida amalga oshirilayotgan ko'lamli sa'y-harakatlar bilan izohlanadi.

Aytish joizki, yurtimizda o'tkaziladigan Parlamentlararo Ittifoq assambleyasi dolzarb masalalar yuzasidan parlamentlar o'rtasida o'zaro tajriba almashish, O'zbekiston qonun chiqaruvchi organi faoliyati bilan xalqaro hamjamiyatni keng tanishtirish, 2030-yilgacha bo'lgan strategiyani amalga oshirishda parlamentlar ishtirokini kengaytirish, BRMga erishish, inson huquqlari, gender tengligi, yoshlar imkoniyatlarini kengaytirish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda parlamentlararo hamkorlik masalalarini ko'rib chiqish imkonini berishi bilan ham ahamiyatlidir.

"Xalq so'zi".

QISQA SATRLARDA

Akademiya faoliyati sarhisobi

O'zbekiston Badiiy akademiasining o'tgan yildagi faoliyatiga bag'ishlangan matbuot anjuman o'tkazildi.

Unda mamlakatimizda ilk marotaba O'zbekiston Badiiy akademiasini Badiiy akademiasining ijodkorlar uyushmasi bilan hamkorlikda "Art Gallery" auktsion uyi faoliyatini yo'lga qo'ygani aytiladi. Badiiy akademiasini tasarrufidagi ko'rgazma zallarida Fransiya, Chexiya, Italiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Ozarbayjon tasviriy san'at vakillari ko'rgazmalari tashkil qilingan.

Umummilliy harakat

Samarqand viloyatida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida salmoqli ishlar amalga oshirilmog'da. Xususan, joriy bahor mavsumida 10 million 208 ming tup ko'chat ekish rejalashtirilgan.

Ayni paytga qadar esa 1,5 million tupga yaqin daraxt va buta ko'chatlari ekilib, elektron platformaga kiritildi. Joriy yil yakuniga qadar viloyatning shahar va tumanlarida 28,4 gektar maydonda "Yashil bog" barpo etiladi.

Umuman, hududda yil oxirigacha 64,15 gektar maydonda "Yashil jamoat parklari" tashkil qilinishi ko'zda tutilgan.

Tabiiy ofatdan jabrlangan aholiga beg'araz yordam

Surxondaryo viloyatining Qumqo'rg'on tumanida sel-suv toshqinidan talafot ko'rgan ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga poytaxtdan gumanitar yordam yuborildi.

Ushbu yordamlar Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi, Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazining viloyat bo'limi va "Sog'lom avlod uchun" hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jam'armasi ishtirokida tarqatildi.

Ayni paytda mahallalarda sel-suv toshqini talafotlarini bartaraf qilish ishlari davom etmoqda.

"Xalq so'zi".

Muloqot

O'ZARO ALOQALARNI YANADA KENGAYTIRISH MASALALARI KO'RB CHIQILDI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Jeneva shahrida Parlamentlararo Ittifoq (PI) bosh kotibi Martin Chungong bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda yurtimizning mazkur nufuzli xalqaro tashkilot bilan hamkorligini yanada kengaytirish, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, inson huquqlarini himoya qilish va gender tenglikni ta'minlash, yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ustuvor yo'nalishlarda amaliy va konstruktiv muloqotni davom ettirish kabi masalalar muhokama qilindi.

Shuningdek, PI bilan birgalikda

o'tkaziladigan tadbirlar, xususan, 2025-yil yurtimizda bo'lib o'tadigan 150-yubiley assambleyaga tayyorgarlik ko'rish va uning doirasidagi tadbirlarni o'tkazishning tashkiliy jihatlari ko'rib chiqildi.

Martin Chungong ta'kidlaganidek, bo'lajak assambleyaning asosiy mavzusi O'zbekiston tomonining ustuvor yo'nalishlari va takliflaridan kelib chiqib belgilanadi.

— Toshkent sammiti nafaqat PI, balki

bütünjahon parlament harakati uchun tarixiy ahamiyatga ega bo'ladi. Uning doirasida qabul qilinajak qarorlar tashkilotimizning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi, — dedi Martin Chungong.

Muloqot chog'ida joriy yilning may oyida Samarqandda o'tkaziladigan Osiyo xotin-qizlar forumi dasturidan maxsus parlament segmenti o'rin olgani ta'kidlanib, uning muvaffaqiyatli o'tkazilishida Parlamentlararo Ittifoq ko'magiga ishonch bildirildi.

"Xalq so'zi".

HAMKORLIK YO'NALISHLARI BELGILAB OLINDI

Tatariston Respublikasi Raisi Rustam Minnixonov Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurdi.

Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov va Tatariston Respublikasi Raisi Rustam Minnixonov ishtirokida ikki hudud delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralari bo'lib o'tdi.

Uchrashuv avvalida Ulug'bek Qosimov va Rustam Minnixonov muborak Ramazon oyi bilan barchani samimiy tabrikladi. Mehmon ko'rsatilgan hurmat-izzat uchun Surxondaryo viloyati

rahbariga chuqur minnatdorlik bildirib, qadimiy hududning boy tarixidan katta taassurot olganini alohida ta'kidladi.

Viloyat hokimi vohaning iqtisodiy-ijtimoiy, investitsiyaviy jozibadorligi xususida atroficha ma'lumot berib, ikki tomonlama

o'zaro manfaatli qator takliflarni ilgari surdi. Neft mahsulotlarini qayta ishlash, transport-logistika, qishloq xo'jaligi, innovatsion texnologiyalar, chorvachilik, ta'lim kabi sohalarida hamkorlik istiqbollari belgilab olindi.



"YASHIL" ENERGIYAGA YASHIL CHIROQ

Davlatimiz rahbari shu yilning 25-26-mart kunlari Namangan viloyatiga tashrifi davomida hududda barpo etilishi rejalashtirilgan qayta tiklanadigan yirik energiya manbalari, xususan, Pop tumanida ikkita quyosh fotoelektr stansiyasi hamda Uychi tumanida gidroelektr stansiyalari kaskadi qurilishiga start berdi. Bu viloyatning elektr energiya bilan uzluksiz ta'minlash borasidagi navbatdagi amaliy qadami, deb baholanmoqda.

Islohot samaralari



Quyosh quvvati — kelajak siyrati

Sir emas, kundalik hayotda eng zarur vositaga aylangan elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoj yildan-yilga ortib bormoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, birgina Namangan viloyatida keyingi uch yilning o'zida ushbu ko'rsatkich 24 foizga ortgan. Bu, o'z navbatida, quvvatlar ishlab chiqarish hajmini muntazam oshirib borish masalasi dolzarb ekanini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda elektr energiyasining 90 foiz qismi issiqlik elektr stansiyalarida ishlab chiqariladi. Agar O'zbekistonda yil davomidagi bulutsiz kunlar o'rtacha 250 — 270 kunni, quyosh nurlanishi davomiyligi esa 2850 — 3050 soatni tashkil etishini inobatga olsak, undan olinadigan energoquvvat biz uchun qulay manba ekanligi ayon bo'ladi.

Shu bois 2023-yil 16-fevralda "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident

qarori qabul qilindi. Ayni paytda ushbu muhim hujjatda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayonki, binolar tomiga o'rnatiladigan quyosh panellari arzon hamda ekologik jihatdan sof elektr quvvati ishlab chiqarishda qulay va samarali vosita hisoblanadi. Mazkur yo'nalishdagi ishlarning tizimli tashkil etilishi natijasida viloyatdagi ko'plab iste'molchilar qisqa vaqt ichida o'zining ministansiyalariga ega bo'ldi. Hozirgi kunga kelib ular soni 4090 tadan ortib, 31,7 megavatt miqdorida energiya hosil qilinmoqda.

Bunday xayrli tashabbus keng qamrovda amalga oshirilsa, natijasi ham yuqori bo'ladi. Shu ma'noda, ijtimoiy soha muassasalari, tadbirkorlik subyektlari hamda aholi xonadonlarida yangilikni joriy etishga manfaatdorlik bilan yondashilayotganini kuzatish mumkin. Masalan, shahar va tumanlardagi 2067 ta xonadon o'z ehtiyojini ayni vosita yordamida qoplayotir.



Uchrashuv

IKKI TOMONLAMA STRATEGIK SHERIKLIK MUSTAHKAMLANADI

Kecha Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev AQSH Kongressi Vakillar palatasi qo'mitasi raisi Mayk Rojers boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda O'zbekiston — AQSH hamkorligining keng doirasi, xususan, parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash hamda savdo-iqtisodiy, mehnat munosabatlari yo'nalishlarida hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, muloqot davomida mehmonlarga yurtimizda inson huquqi va erkinliklarini, qonun ustuvorligini, davlat boshqaruvi shaffofligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, xususiyl mulk va xorijiy investorlarni himoya qilish, iqtisodiyotni liberallashtirish

borasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida batafsil ma'lumot berildi.

Subhat davomida ikki davlat parlamentlari o'rtasidagi aloqalarni kengaytirishda AQSH Kongressining Vakillar palatasida shakllantirilgan "O'zbekiston bo'yicha kokus" (do'stlik guruhi)ning o'rni salmoqli bo'layotgani ta'kidlab o'tildi.

Iqtisodiy hamkorlik masalalari ham e'tibor markazida bo'ldi. Ikki tomonlama strategik sheriklikni mustahkamlash borasida tarkibiga 38 ta yetakchi kompaniya kiradigan Amerika — O'zbekiston savdo palatasi

salmoqli hissa qo'shayotgani aytili. Investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish va ikki davlat ishbiarmon doiralari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash bo'yicha ham fikr almashildi.

Shu bilan birga, mehnat munosabatlari yo'nalishidagi hamkorlikni izchil davom ettirish, bunda munosib mehnat sharoitlarini yaratish, mehnat sohasiga xalqaro standartlarni keng joriy qilish kabi masalalarda doimiy maslahatlashuvlarni o'tkazib borishga kelishib olindi.

Muloqot yakunida tomonlar barcha sohada o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirishga tayyor ekanliklarini bildirdi.

"Xalq so'zi".

Senator va hayot

Qonun ijrosi qoniqarlimi?

Oliy Majlis Senati Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi hamda xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashi hamkorligida tashkil etilgan yig'ilishda "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunning viloyatdagi ijrosi holati yuzasidan o'tkazilgan o'rganish natijalari muhokama qilindi.

Dastlab Navoiy viloyati sport boshqarmasi rahbarining qonun ijrosi bo'yicha olib borilgan ishlar haqidagi axboroti eshitildi.

Ta'kidlanganidek, viloyatdagi sport ta'limi muassasalarida olimpiya sport turlari bilan qariyb 12 ming, paralimpiya turlari bilan 225, milliy sport turlari bilan salkam 2 ming, noolimpiya sport turlari bilan 2 ming 680 nafar, jami 17 mingga yaqin sportchilar shug'ullanib kelmoqda. Shundan 4 ming 363 nafarini qizlar tashkil qiladi.

Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish maqsadida 2023-yilda mahalliy byudjetdan 2 mlrd. 840 mln. so'm, respublika byudjetidan 1 mlrd. 876 mln. so'm ajratilgan.

Alohida qayd etilganidek, "Har bir islohot mahalladan boshlanishi kerak" tamoyili asosida 35 ta mahallada 39 ta sport maydonchasi qurilib, foydalanishga topshirilgan. Shuningdek, sport maktablariga o'tgan yilning o'zida 39 turdagi 2,6 mlrd. so'mlik 2 252 ta sport jihozi yetkazib berilgan. Yana bir ma'lumot: o'tgan yil davomida 5 127 ta ommaviy sport tadbiri o'tkazilib, ularda 378 mingdan ziyod

aholi qatnashgan.

Viloyatda para sportni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, nogironligi bo'lgan 4 ming 584 shaxsdan sport turlariga qiziqishi yuzasidan so'rovnomalari o'tkazilgan. So'rovnomada ularning 1 ming 283 nafari sportga qiziqishi borligini bildirgan. Natijada para sport turi bo'yicha 6 ta sport seksiyasi tashkil etilib, 225 nafar yosh qamrab olingan. Ular bilan 28 nafar murabbiy mashg'ulot olib bormoqda.

Muhokama jarayonida viloyatda amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda, qonun ijrosi borasida ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilganiga ham e'tibor qaratildi.

Jumladan, qonun bilan sog'liqni saqlash vazirligiga jismoniy tarbiyadan sog'liqni mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish va davolash vositasi sifatida foydalanish, aholining jismoniy jihatdan kamol topishi holati tahlilini o'tkazish va natijasi yuzasidan tegishli davlat organlariga takliflar kiritish vakolati berilgan bo'lsa-da, na vazirlik va na uning hududiy boshqarmasi tomonidan bu bo'yicha aniq

takliflar ishlab chiqilgan.

Prezidentning 2020-yil 30-oktyabrdagi Farmonida davlat organlari va tashkilotlarida xodimga "Sport targ'ibotchisi" qo'shimcha vazifasini yuklash va uning bazaviy lavozim maoshiga 20 foiz ustama belgilash ko'zda tutilgan, lekin aksariyat davlat tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag' yo'qligi sababli ushbu vazifa ijrosi ta'minlanmagan.

Qonunda mahalliy hokimliklar tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan hududiy dasturlar ishlab chiqilishi belgilangan bo'lsa-da, bunday dasturlar hozirgacha qabul qilinmagan.

Ayni chog'da sport maktablari o'sish (yoki pasayish) dinamikasi, sport turlaridagi muammo va kamchiliklar, trenerlar faoliyatini tizimli hamda samarali yo'lga qo'yish kabi masalalar ilmiy jihatdan tahlil etilmagan. Shuningdek, para sport turlari bo'yicha o'quv qo'llanmalari yetishmaydi.

Sport ta'lim muassasalaridagi tibbiyot xodimlari malaka oshirish bilan bog'liq xarajatlarni o'z hisobidan qoplab kelmoqda.

O'smirlar va yoshlarning turli musobaqalarga borishi uchun zarur bo'lgan xizmat safari bilan bog'liq xarajatlarni oldindan to'lab berish amaliyoti yo'q. Shu

sababli, ushbu mablag'lar sportchilar ota-onasi yoki uning murabbiyi tomonidan qoplab berilayotir. Oqibatda 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra qariyb 3,3 mlrd. so'm qarzdorlik yuzaga kelgan.

Viloyatdagi 374 ta umumta'lim maktabidan 100 tasida sport zali yo'q. Professional ta'lim muassasalarida esa sport jihozlari yetishmaydi, ayrimlarining sport zallari avariya holatida.

Shuningdek, majlisda "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunni tubdan qayta ko'rib chiqish va uni takomillashtirish lozimligi ham asoslab o'tildi. Ishtirokchilar tomonidan qonunni yangi tushunchalar bilan to'ldirish, unda O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi vakolatlarini, sport federatsiyalari huquq va majburiyatlarini, pullik xizmatlarni, sport sohasida davlat-xususiy sheriklikni belgilash, sportning surdlimpiya, maxsus olimpiya va ko'zi ojizlar sporti turlari bo'yicha yangi normalar kiritish maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi.

Majlis so'ngida Senatning Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi hamda xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashi qo'shma qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Qonunchilik palatasi qo'mitalarida

AKT imkoniyatlaridan qay darajada foydalanilmoqda?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Innovatsion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi tomonidan kengaytirilgan yig'ilish o'tkazildi.

Unda Raqamli texnologiyalar vazirligining BMTning Barqaror tarmog'iga ulanishning rivojlanish maqsadlariga erishish doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish hamda aholining umumqamrovi va arzon internetga ulanishini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati yuzasidan axboroti eshtildi.

Vazirlik axborotdagi ko'ra, o'tgan davrda xalqaro va shaharlararo telekommunikatsiya

tarmog'ini rivojlantirish maqsadida xalqaro internet tarmog'iga ulanishning umumiy o'tkazuvchanlik qobiliyati 2017-yildagiga nisbatan 38 barobar oshirilib, 3 600 Gbit/skundga yetkazilgan. Shu bilan birga, aholiga ko'rsatilayotgan telekommunikatsiya xizmatlari sifatini oshirish maqsadida 2023-yilda optik tolali aloqa liniyalari qurish orqali ularning umumiy uzunligi 231 ming kilometrga yetkazilgan. Respublika bo'ylab optik

tolali aloqa liniyalari qamrovi esa 90 foizni tashkil qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqda, aholining keng polosali telekommunikatsiya xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida 2017-yilda o'rnatilgan portlar soni 1,03 milliontani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 700 mingga keng polosali internet portlar o'rnatilib, ularning soni 5,3 milliondan ortishiga erishilgan.

Amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar natijasida hozirgi kunda internet foydalanuvchilarining jami (mobil va simli internet) soni 34 milliondan ortgan.

E'tiborli jihati shundaki, O'zbekistonda internetning

narxi iste'molchilar uchun nisbatan hamyonbop ekanligi xalqaro tashkilot va ekspertlar e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Xususan, "Cable.co.uk" saytining internet arzonligi yuzasidan tuzilgan reytingida mamlakatimiz simli internet arzonligi bo'yicha 219 ta davlat orasida 25-o'rinni, mobil internet arzonligi bo'yicha esa 233 ta davlat orasida 22-o'rinni egalladi.

Yig'ilishda deputatlar sohamli texnologiyalar sohasida erishilgan yutuqlar bilan birga, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda vazirlik tomonidan e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ayrim masalalarga ham to'xtalib o'tishdi.

Gulbahor SAIDG'ANIYEVA,

Qonunchilik palatasi deputati:

— Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi deyarli har qanday tarmoq taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Ayni paytda internet orqali amalga oshirilayotgan firibgarlik holatlari ko'payib borayotgani vazirlik tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlarni yanada kuchaytirishni taqozo etadi. Jumladan, bank to'lov operatsiyalarini amalga oshirishda

xavfsizlik choralari takomillashtirish, joriy qilinayotgan onlayn tizimlarning axborot va kiberxavfsizligini yetarlicha ta'minlash, qolaversa, raqamli texnologiyalarga xotin-qizlarni jalb qilish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan kengroq foydalanish borasida yechimini kutayotgan masalalar bo'yicha takliflarimizni ilgari surdik.



Shuningdek, yig'ilishda qo'mita a'zolari hududlarni telekommunikatsiya xizmatlari bilan qamrab olish bo'yicha "O'zbekiston — 2030" strategiyasi va O'zbekiston Respublikasining 2024-yil uchun davlat dasturida belgilangan

maqsadli ko'rsatkichlarga erishish vazifalaridan kelib chiqib, o'z taklif-tavsiylarini berdi.

Yakunda kun tartibidagi masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

Qarindoshlar o'rtasidagi nikoh: sabab va oqibatlar

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi tomonidan "Qarindoshlar o'rtasidagi nikoh: sabab va oqibatlar" mavzuida davra suhbatlari o'tkazildi.

Ta'kidlab o'tilganidek, mamlakatimizda onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ertaturnush qurish yoki yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohning oldini olish bo'yicha ham tizimli chora-tadbirlar ko'rilayotir. Lekin shunga qaramay, bu borada ayrim muammolar mavjud. Ertava qarindoshlar o'rtasidagi nikoh oqibatida hayotdan barvaqt ko'z yumayotgan

yosh onalar va bolalar o'limi hamon uchramoqda. Bu esa yon shajara bo'yicha yaqin qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzishning oldini olishga qaratilgan qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Tadbirda yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh millatning irsiy zaiflashuviga sabab bo'lishi, kuzatuvlar ko'p hollarda yaqin qarindoshlardan tug'ilgan bolalarda irsiy kasalliklar yaqqol namoyon bo'lishini ko'rsatgani qayd etildi.

Mutaxassislarning

aytishicha, bir-biriga begona bo'lgan er-u xotinning tug'ilajak bolaisiga nisbatan qarindoshlar o'rtasida tug'ilajak bolada irsiy kasallik xavfi 3-4 baravar ko'pligi va turli nuqsanlar kuzatiladi. Irsiy kasalliklar bolaning yoshligida bilinmay, yoshi o'tavergach yuzaga chiqishi mumkin. So'nggi yillarda ajrimga sabab bo'layotgan holatlardan biri ham qarindosh-urug'lar o'rtasidagi nikohdan oilada nogironligi bo'lgan bolalarning tug'ilayotgani bilan bog'liq.

Bunday oqibatlarning oldini olishda yon shajara bo'yicha yaqin qarindoshlar o'rtasida tuzilgan nikohlardan nogironligi bo'lgan farzandlar tug'ilishi xavfini o'rganish, uning natijalari asosida

bunday nikohni taqiqlash bo'yicha qonun loyihasini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Shu munosabat bilan Qonunchilik palatasi deputatlari, Senat a'zolari, Adliya va Sog'liqni saqlash vazirliklari hamda manfaatdor davlat organlari vakillaridan iborat ishchi guruh tuzilgan. Bu guruh mazkur masala yuzasidan xorijiy tajribani o'rganish, milliy qonunchilikni takomillashtirish, kelajak avlod salomatligiga salbiy ta'sir qiladigan qarindoshlikning barcha darajasidagi nikoh tuzilishiga yo'l qo'ymaslikni qonun bilan belgilash borasida tegishli muhokama va o'rganishlar o'tkazmoqda.

Mavluda XO'JAYEVA,

Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi raisi:



— Turmush qurgan yaqin qarindoshlarning farzandi aksariyat hollarda nogironligi bo'lgan tarzda tug'ilishi fan va tibbiyotda allaqachon isbotlangan. Yurtimizda nikoh munosabatlarini mustahkamlash, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlardan ko'zlangan asosiy maqsad sog'lom va mustahkam oila harpo etishdir. Ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda Respublika

ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markaziga murojaat qilgan 9014 nafar bolaning 796 nafari yoki 8,8 foizida irsiy kasalliklar aniqlangan. Kasalliklar turi bo'yicha tahlil qilganda birgina asab-mushak tizimining irsiy kasalliklari aniqlangan 265 bolaning 88 nafari, ya'ni 33,3 foizi qarindoshlar o'rtasidagi nikohdan tug'ilgan bolalar ekanligi achenarli holdir.

Munozaralar davomida o'rganishlar natijasidan kelib chiqib, yon shajara bo'yicha yaqin qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzishni taqiqlash maqsadida Oila kodeksiga tegishli o'zgartirish kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqish masalasi muhokama qilindi.

Tadbir yakunida deputatlar, senatorlar tegishli vazirlik va tashkilotlar, tibbiyot sohasi va jamoatchilik vakillari, "mahalla

yettilligi", shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali joylarda aholi va yoshlar orasida kelajak avlod salomatligiga salbiy ta'sir qiladigan qarindoshlikning barcha darajasidagi nikoh tuzishiga yo'l qo'ymaslikni targ'ib etish, jamoatchilik fikridan kelib chiqib, qonun loyihasini yanada takomillashtirish, maromiga yetkazish yuzasidan takliflar tayyorlashga kelishib olindi.

Maktabgacha ta'lim agentligi axboroti eshitildi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tomonidan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining "Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarida ko'tarilgan masalalarning hal etilayotganligi holati to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ma'lum qilinganidek, mamlakatimizda davlat organlarining aholi bilan muloqotini takomillashtirish, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash hamda ularning muammolarini hal etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan davr mobaynida sohaga oid bir qator normativ-

huquqiy hujjatlar, xususan, yangi tahrirdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Shuningdek, har bir soha va yo'nalishda fuqarolar murojaatlarini o'z vaqtida va to'liq o'rganish, ular yuzasidan qonuniy choralar ko'rishga ustuvor vazifa sifatida e'tibor qaratilmoqda. Har bir tashkilot rahbarining murojaatlar bilan ishlashda

G'ayrat ABDIYEV,

Qonunchilik palatasi deputati:

— Agentlik tomonidan fuqarolardan kelib tushgan murojaatlar o'z vaqtida ko'rib chiqilib, ularni qanoatlantirish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilgani, albatta, e'tiborga molik. Biroq ushbu yo'nalishda ishga solinmagan imkoniyatlar ham talaygina va ulardan to'la-to'kis foydalanish zarur. Shu bois agentlikka aholi murojaatlari bilan yangicha tizimda ishlash,

xususan, har chorakda tuman va shaharlarda sayyor qabullar tashkil etish, murojaatlarning belgilangan muddatlarda sifatli ijrosini ta'minlash, ko'tarilgan masalalarni murojaatchi bilan uchrashgan holda ko'rib chiqish bo'yicha takliflar berdik. sudbamau ижросини таъминлаш, кўтарилаган масалаларни муурожаатчи билан учрашган ҳолда кўриб чиқиш бўйича тақлифлар бердик.



Eshituvda kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

HAMKORLIK YO'NALISHLARI BELGILAB OLINDI

Surxondaryo viloyati va Tatariston Respublikasining o'zaro hamkorlik, do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlash uchun hududlarning madaniyat kunlarini tashkil etish, bayramlarda delegatsiyalar ishtirokini ta'minlash yuzasidan kelishuvlarga erishildi. Uchrashuv yakunida ikki hudud rahbarlari muzokaralar yakuniga oid tegishli bayonnomalarni imzoladi.

Shu yerda voha madaniyati, milliy qadriyat va urf-odatlar, milliy taomlari aks etgan ko'rgazma namoyish etildi.

Mehmonlar "Termiz" xalqaro savdo markazida ham bo'ldi. Markazda amalga oshirilayotgan yirik loyihalar, yaratilayotgan qulaylik va imkoniyatlar taqdimoti o'tkazildi. Termizdan Afg'onistonga yuk o'tkaziladigan maxsus yo'lak bilan tanishildi. "Termex National Carpets" mas'uliyati cheklangan jamiyatining gilam ishlab chiqarish korxonasi, "Leto" mas'uliyati cheklangan jamiyatining issiqxona tashkil etish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash loyihasi, Angor tumanidagi Bahor mahallasida aholining tomorqa xo'jaligini boshqarish tajribasi mehmonda katta qiziqish uyg'otdi.

Tatariston Respublikasi Raisi Rustam Minnixonov Surxondaryoga safarining oxirida mintaqamizda yagona — Termiz arxeologiya muzeyida saqlanayotgan vohaning boy o'tmishiga oid eksponatlar bilan tanishdi.

Xolmo'min MAMATRAYIMOV, O'za muxbiri.

Markazlarda 28 turdagi ijtimoiy xizmat ko'rsatiladi

Surxondaryo viloyatining Boysun, Oltinsoy, Bandixon, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Muzrabot va Termiz tumanlarida "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazining yangi binolari foydalanishga topshirildi.

E'tibor



"Navro'z" umumxalq bayrami oldidan ish boshlagan markazlar aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish yo'nalishidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishi bilan ahamiyatlidir.

— Markazimizda jismoniy imkoniyati cheklangan hamda og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan aholiga individual yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatiladi, — deydi Boysun tumanidagi markaz direktori Bekzod Ulug'ov. — Faoliyatimiz uchun barcha shart-sharoit yaratilgan.

Darhaqiqat, markazlarning yangi binolari eng zamonaviy jihozlar, texnik vositalar bilan ta'minlangan. Xodimlarning samarali faoliyat yuritishi hamda aholiga sifatli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishi uchun

zarur qulayliklar yaratilgan. Ayni kunda markazlarda 28 turdagi ijtimoiy xizmat ko'rsatilmoqda.

— Faoliyatimiz bevosita mahalla bilan bog'liq bo'ladi, — deydi Termiz tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi rahbari Erkin Tangriyev. — Mahalla faollari safiga ijtimoiy xizmatlar xodimlarining ham qo'shilishi, albatta, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini to'la qamrab olish, sifatli va professional ijtimoiy xizmat ko'rsatish orqali ularning og'irini yengil qilish, muammolarini hal etishga yaqindan yordam beradi.

Tadbirlarda viloyat hokimi "ZOOM" platformasi orqali ishtirok etdi.

Farhod ESONOV ("Xalq so'zi").

ISTIQBOLLI LOYIHALAR XALQ FAROVONLIGINI YUKSALTIRADI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 25-26-mart kunlari Namangan viloyatiga tashrifi doirasida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida amalga oshirilayotgan loyihalar koʻzdan kechirildi, yirik energetika obyektlari qurilishiga start berildi. Mahallalar hayoti bilan atroflicha tanishgan davlatimiz rahbari hudud aholisi bilan samimiy muloqot qildi. Qayd etish joiz, ushbu jarayonni yurtdoshlarimiz, ayniqsa, namanganliklar katta qiziqish va hayajon bilan kuzatdi. Bu bejiz emas. Chunki soʻnggi yillarda olib borilayotgan keng koʻlamli islohotlar natijasida viloyat shahar va qishloqlarining qiyofasi tubdan oʻzgarmoqda, aholi turmush tarzi yaxshilaniib, bugungi oʻzgarishlarni oʻz kundalik hayotida his etmoqda. Bu boʻyicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari oʻz munosabatini bildirdi.

Aks sado

Oʻzgarishlar odamlar hayotida oʻz ifodasini topmoqda

Sardor GʻIYOSOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati,
OʻzLiDeP fraksiyasi aʼzosi:

— Soʻnggi yillarda mamlakatimizning barcha goʻshasida boʻlgani kabi Namangan viloyatida ham beqiyos yangilanishlar roʻy berdi. Amalga oshirilayotgan islohotlar quruq raqamlarda emas, balki aholining kundalik hayotida, maishiy turmushida oʻz ifodasini topmoqda. Masalan, birgina qishloq xoʻjaligi sohasini olaylik. Odamlarning daromadini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligi va narx-navo barqarorligini taʼminlash maqsadida fuqarolarga foydalanish uchun paxta va boshqa qishloq xoʻjaligi ekinlaridan boʻshagan yer maydonlari ajratib berilmoqda. Bu imkoniyatdan samarali foydalanib, yaxshi daromad topayotgan, bozorlarimiz toʻkinligini taʼminlashga oʻz ulushini qoʻshayotgan xonadonlar juda koʻp.

Shu bilan birga, yerning umrini behuda oʻtkazayotgan, uni isrof qilayotgan fuqarolarimiz ham yoʻq emas. Vaholanki, Namangan mamlakatimizning eng barakali, sersuv va serhosil hududlaridan biri sanaladi. Viloyatda tadbirkorlik ham keng rivojlangan. Partiyamizning asosiy elektratori ishlabarmonlar va fermerlar boʻlganligi sababli ular bilan tez-tez uchrashib, ochiq muloqotlar oʻtkazib turamiz.

Bugun viloyatda aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanishi, tomoqrolargan samarali foydalanishi uchun barcha imkoniyatlar bor. Bu orqali koʻplab yoshlar ishli boʻliya, oilalarga daromad, baraka kiryapti.

Lekin aholi mavjud imkoniyatlardan toʻliq foydalana olyapti, deb aytolmaymiz. Masalan, Mingbuloq va Kosonsoy tumanlarida bir gektardan olinadigan daromad viloyat koʻrsatkichidan ikki barobar kam. Aholiga berilgan 16 ming gektar yerning 3,5 ming gektari boʻsh yotibdi. Pop, Chortoq, Norin va Yangiqoʻrgʻon tumanlarida esa sanoatlashish darajasi past.

Davlatimiz rahbari ushbu kamchiliklarni bartaraf etish, muammolarning yechimi haqida ham aniq vazifalarni belgilab berdi. Unga koʻra, Sayxunobod tajribasi asosida viloyatdagi 35 mingta xonadonga bosqichma-bosqich gulchilik, issiqxona, baliqchilik, asalarichilik, chorvachilik, uzumchilik, qulupnay, kartoshka yetishtirish boʻyicha moliyaviy, texnik, maslahat va boshqa koʻrinishdagi amaliy yordam beriladi.

Umuman, oʻtgan qisqa davrda taʼlim, tibbiyot, qishloq xoʻjaligi, qoʻyngki, barcha sohada bir necha oʻn yilliklarda amalga oshmagan ishlar yuz berdi. Davlatimiz rahbarining Namangan viloyatiga tashrifi odamlarning qiyayitini, shashtini koʻtardi, har bir fuqaroga beqiyos kuch-quvvat bagʻishladi. Belgilab berilgan aniq vazifalar ijrosini oʻz vaqtida taʼminlash esa biz, deputatlardan yakdillik va faollik talab etadi. Bu jarayonda faol qatnashib, viloyatning ijtimoiiy-iqtisodiy rivojlanishiga oʻz hissamizni qoʻshamiz.

Vazifalar — zalvarli, ijro ishtiyoqi — baland

Shohista TURGʻUNOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, OʻzXDP fraksiyasi aʼzosi:

— Namangan — ishbiarmonlar yurt fuqarolarining qon-qoniga singib ketgan. Lekin yetarli sharoit boʻlmagani, xomashyo sotib olishdagi qiyinchiliklar sababli koʻp zargarlar faoliyatini toʻxtatgan, bori ham buyumlarni qoʻl mehnatida tayyorlardi.

Prezidentimizning 2019-yil 18-maydagi tegishli Farmoni soha vakillariga keng imkoniyatlar ochdi. Bunday eʼtibor va imkoniyatlar esa zargar tadbirkorlarga ishonch berdi. “Gavhar grup” masʼuliyati cheklangan jamiyati ham shu tariqa vujudga keldi. Turkiya, Italiya, AQSH va Germaniyadan zamonaviy uskunalar keltirilib, 2022-yilda ishga tushirildi.

Davlatimiz rahbari viloyatga tashrifini dastlab Yangi Namangan tumanidagi “Gavhar grup” korxonasidan boshlagani bejiz emas. Chunki bugungi kunda ushbu korxona yiliga 1 200 kilogramm zargarlik buyumlarini sanoat usulida ishlab chiqarish quvvatiga ega. Eng muhimi, bu yerda 10 ming xil dizayndagi zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish oʻzlashtirilgan.

Alohida eʼtirof etish kerak, hozirda vodiya bunday korxonalar soni yil sayin koʻpayib bormoqda. Natijada yangi ish oʻrinlari yaratilishi

yurti. Tadbirkorlik, hunarmandlik bu barobarida eksport hajmi ham oshib, viloyatning iqtisodiy salohiyati tobora yuksalmoqda.

Xullas, keyingi olti-yetti yilda viloyatda boʻlayotgan oʻzgarishlarni soʻz bilan ifodalab boʻlmaydi. Ayniqsa, aholi bandligini taʼminlash borasidagi ishlar eʼtiborga molik. Namangandan boʻlganim bois har oyning oxirgi haftasida xalq bilan muloqot qilish maqsadida viloyat hududlarida boʻlib, saylovchilar bilan uchrashuvlar oʻtkazamiz. Ochigʻi, har gal biror oʻzgarish yoki yangilanishning guvohi boʻlmoqdamiz. Va muhimi, viloyatning qaysi tumaniga yoʻlingiz tushsa, aholi yuz-koʻzida ishchan kayfiyat va shukronalikni tuyasiz.

Ishonchim komilki, tashrif chogʻida belgilab berilgan vazifalar ijrosi hududning beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, xalqimiz farovonligini yuksaltirish, turmush sharoitini yanada yaxshilashga xizmat qiladi. Shunday ekan, biz, deputatlar ushbu topshiriqlar ijrosini taʼminlashda bor kuch va salohiyatimizni, imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz lozim. Zotan, vazifalar — zalvarli, ijro ishtiyoqi — baland.

Yangi imkoniyat va maqsadlar roʻyobi sari

Muxtorjon HOJIMATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, Ekologik partiya fraksiyasi aʼzosi:

— Maʼlumki, aholi farovonligi, mamlakat iqtisodiyoti rivoji uchun, eng avvalo, energiya resurslari bilan taʼminlanganlik muhim sanaladi. Shu bois davlatimiz rahbarining Namangan viloyatiga tashrifi davomida yangi elektr stansiyalari qurilishiga tamal toshi qoʻyilgani hudud aholisining orzu-maqsadlarini roʻyobga chiqardi.

Mazkur yirik energetika loyihalari qurilishini boshlab bergan Prezidentimiz odamlarning farovon hayoti

uchun sharoit yaratish yangi Oʻzbekiston siyosatining asosiy yoʻnalishlaridan biri ekanligi, bunda katta-kichik loyihalarni oʻz vaqtida ishga tushirish, ularning barqaror faoliyati uchun uzluksiz energiya bilan taʼminlash nihoyatda zarur ekanligini alohida taʼkidladi.

Darhaqiqat, keyingi yillarda yurtimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini koʻpaytirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Ayniqsa, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish

doirasida tegishli chora-tadbirlar koʻrilyapti. Namangan viloyati misolida aytadigan boʻlsak, bugungi kunda hududda jami 913 megavatt generatsiya quvvati mavjud. Tahlillarga koʻra, soʻnggi uch yilda elektr isteʼmoli 24 foizga oʻsgan. Shu bois viloyatda quvvati 1 228 megavatt boʻlgan uchta majmau loyihalashtirildi. Bular gidroelektr stansiyalar kaskadi hamda ikkita quyosh elektr stansiyasidan iborat. Qolaversa, Norin daryosida 6 ta GES kaskadini qurish rejalashtirilgani eʼtiborga molik.

Bugungi kunda qurilishi boshlangan shu kabi muhim loyihalar natijasida Namangan viloyatining generatsiya quvvatlari 2 141 mega-vattga yetadi. Yillik 7,8 mlrd. kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Bu esa viloyatning elektr energiyasiga boʻlgan 5,5 mlrd. kilovatt-soatlik talabini toʻliq qoplaydi. Ehtiyojdan ortgan 30 foiz elektr Andijon va Fargʻona viloyatlariga yoʻnaltiriladi. Shu jihatdan, mazkur loyihalarining ishga tushirilishi sanoati jadal rivojlanib borayotgan viloyat aholisi va tadbirkorlariga

elektr energiyani barqaror yetkazib berishga xizmat qiladi.

Xulosa oʻrinda aytganda, davlatimiz rahbarining Namangan viloyatiga bu galgi tashrifi aholi turmush farovonligini oshirish, bandlikni taʼminlash hamda hududni har tomonlama rivojlantrishga oid loyihalarni hayotga samarali tatbiq etishga qaratilgani bilan alohida ahamiyatga ega boʻldi. Mazkur saʼy-harakatlar, shubhasiz, xalqimiz turmush darajasini oshirish barobarida, yangi imkoniyatlar, maqsadlarga keng yoʻl ochadi va har bir insonning oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarishiga xizmat qiladi.

“Xalq soʻzi”.

Bunyodkorlik ishlaridan aholi mamnun

Dilmurod ISMOILOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, “Adolat” SDP fraksiyasi aʼzosi:

— Prezidentimizning bu gal Namangan viloyatiga tashrifi qizgʻin va oʻzgacha kechdi. Ayniqsa, davlat rahbarining viloyatda uyushtirilgan iftorlikda ishtirok etib, nafaqat namanganliklar, balki Fargʻona va Andijon viloyatlaridan kelgan nuroniylar bilan samimiy muloqot qilgani esda qolarli boʻldi.

Shuningdek, tashrif doirasida hududni yanada rivojlantirish, qishloq xoʻjaligi, mahallabay ishlash, tomorqa va xonadonlardagi imkoniyatlardan foydalanib, aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Qayd etish kerak, mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan oxirgi yetti yilda viloyatning iqtisodiy-ijtimoiy holati tubdan oʻzgardi. Xususan, tadbirkorlar koʻpayib, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik yanada rivojlandi. Natijada har bir mahallada yangi-yangi tadbirkorlar paydo boʻlib, minglab doimiy ish oʻrinlari yaratildi.

Sohalarda olib borilgan izchil islohotlar natijasida viloyat iqtisodiyoti 2 barobar, eksport 3 karra oʻsib, aholi jon boshiga daromad 15,5 million soʻmga yetdi.

Namangan shahrining meʼmoriy qiyofasini yanada yaxshilash, xorijiy va mahalliy investorlar uchun jozibadorligini oshirish, shaharning turizm salohiyatidan samarali foydalanish, zamonaviy biznes, moliyaviy va turistik infratuzilmalarni jadal rivojlantirish maqsadida 2019 ming aholiga

moʻljallangan Yangi Namangan shahri qurilmoqda.

M a n a s h u n d a y bunyodkorliklarning mantiqiy davomi sifatida endilikda Chust va Pop tumanlarida 10 ming aholi uchun “Yangi Oʻzbekiston” massivlari, yana 20 ming xonadonli turarjoylar, IT-park va bogʻ barpo etiladi.

Tashrif chogʻida Prezidentimiz tomonidan tadbirkorlar uchun alohida sharoitlarga ega zargarlik zonalar tashkil qilinishi aytiladi. Sohaga xomashyo yetkazish, mutaxassis tayyorlash, ishlab chiqarish zanjiri va sotish tizimi butunlay qayta koʻrib chiqiladi. Bu borada qonunchilikka ham takliflar kiritiladi.

Shuningdek, aholiga sifatli tibbiy xizmatlar koʻrsatish, ularning hajmini oshirish boʻyicha ham ustuvor vazifalar belgilab berildi. Endilikda, viloyatdagi 16 ta ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazi negizida ikkita — birinchi va ikkinchi Namangan tibbiyot markazlari tashkil etiladi. Bunda shoshilinch va boshqa tibbiy xizmatlar, diagnostik tekshiruvlar hamda tor soha mutaxassislarini bir joyda jamlash, aholiga tun-u kun xizmat koʻrsatish imkonlari yaratiladi.

Umuman olganda, davlat rahbari tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar yangi ish oʻrinlarini yaratishga, aholi daromadlarining oshishiga, tadbirkorlarning koʻpayishiga, xalqimizning farovon turmushiga xizmat qiladi.

Anjuman

QAZILMA BOYLIKLARI

TARAQQIYOTIMIZ ASOSI

Zaminimiz ulkan yer osti boyliklari zaxirasiga ega boʻlib, bu koʻp millatli xalqimiz farovonligi hamda yangi Oʻzbekiston taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, qazilma boyliklarimiz xilmaxilligi bilan ajralib turadi. Xususan, tabiiy gaz, koʻmir, qoʻrgʻoshin, oltin, kumush, rux, mis, temir, volfram va boshqa maʼdanlarning moʻlligi xalqimizning buguni va yorqin kelajagiga kafolat berib turibdi.

Bugungi kunda yurtimizda konchilik va metallurgiya sanoati yildan-yilga rivojlanib bormoqda. 36 mingdan ortiq konchi-metallurglarni birlashtirgan “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” Ajda 40 dan oshiq millat va elat vakillari mehnat qilmoqda. Ona zaminimiz bagʻridagi nodir, rangli va qimmatbaho metallarni qazib olish hamda ularni qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan ushbu kombinat konlaridan qazib olinayotgan maʼdanlar ichida Mendeleyev davriy jadvalidagi elementlarning barchasi mavjud.



2023-yilni aksiyadorlik jamiyati salmoqli natijalar bilan yakunladi. Jumladan, 31,7 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi. 1 128,2 mln. dollarlik investitsiya loyihalari amalga oshirilib, 661,9 mln. dollar miqdoridagi tayyor mahsulot eksport qilindi. Mahalliyashtirish dasturi boʻyicha 429,0 mlrd. soʻmlik rangli va qimmatbaho metallar qayta ishlandi. Tannarxni arzonlashtirish boʻyicha 404,7 mlrd. soʻmlik natija qayd etildi va 14,95 trln. soʻm mablagʻ byudjetga toʻlab berildi. Eng muhimi, 6,7 trln. soʻm miqdorida sof foyda koʻrildi.

Aksiyadorlik jamiyatida investitsiyaviy loyihalar ham muvaffaqiyatli amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, 2023-yilda “Yoshlik-1” loyihasining togʻ-kon majmuasida 6 ta obyekt, 3-mis boyitish fabrikasi boʻyicha 6 ta obyektning qurilishi yakunlandi. Yangi metallurgiya majmuasining qurilishi yuzasidan dastlabki loyiha ishlari boshlandi.

“Raqaqli OKMK — 2030” konsepsiyasi “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning barcha ishlab chiqarish va biznes jarayonlarini raqamlashtirish, maʼlumotlarni jamlash, tahlil etish va tezkor qaror qabul qilishga qaratilgan boʻlib, ushbu yoʻnalishda 2023-yil maybonda 34 ta loyiha amalga oshirildi.



Jumladan, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va zamonaviy axborot tizimlarini joriy qilish yoʻnalishida Mis boyitish fabrikasi, Mis eritish zavodi, Xondiza kon boshqarmasi, Issiqlik elektr markazida bir qator ishlar bajarildi. 2023-yilda biznes va texnologik jarayonlarni raqamlashtirish hamda ularni maqbullashtirish evaziga 224 mlrd. soʻm iqtisod qilindi.

2024-yilda ham mazkur yoʻnalishlarda olib borilayotgan ishlar jadallashtiriladi. Jumladan, 32,2 trln. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, 2 136,4 mln. dollarlik investitsiyaviy loyihalar amalga oshiriladi. 1 016,6 mlrd. soʻmlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqariladi. 15,73 trln. soʻm mablagʻ byudjetga yoʻnaltirilishi koʻzda tutilgan.

Kecha poytaxtimizdagi Milliy matbuot markazida “OKMK faoliyatining asosiy yoʻnalishlari: 2023-yil yakunlari va 2024-yildagi ustuvor vazifalar” mavzuida OAV xodimlari uchun oʻtkazilgan matbuot anjumanida shu xususda batafsil fikr yuritildi. Unda “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ boshqaruvi raisining raqamlashtirish boʻyicha oʻrinbosari vazifasini bajaruvchi Ravshan Maksumov, aksiyadorlik jamiyati bosh muhandisining texnologiyalar boʻyicha oʻrinbosari Abduqahhor Saynazarov jurnalistlarning savollariga atroflicha javob berdi.

Faxriddin BOZOROV
(“Xalq soʻzi”).

“YASHIL” ENERGIYAGA YASHIL CHIROQ



Umuman olganda, quyoshning beminnat nuri hisobiga 331,5 million kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilib, foydalanishga yoʻnaltirilgani quvvat yiQuvchi panellardan foydalanish qanchalik afzaligini tasdiqlaydi.

Namangan davlat universiteti mamlakatimizdagi oliy taʼlim muassasalari orasida birinchilardan boʻlib muqobil energiya tizimi joriy etilgan subyektlardan biri boʻldi. Bundan ikki yil avval universitetning barcha oʻquv va talabalar turarjoy binolariga dasturga asosan quyosh panellari hamda surv isitish kollektorlari oʻrnatildi. Birinchi yili bu yerda 100 kVt-soat quvvatga ega panellar ishga tushirilgan boʻlsa, oʻtgan yili 355 kilovatt-soatlik ministansiya qoʻshildi.

Endilikda oʻz ehtiyojimizni toʻla qoplab, ortgan energiyani hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga sotaypmiz, — deydi ushbu oliy taʼlim muassasasi moliya-iqtisodiyot ishlari boʻyicha prorektori Rustamjon Imomov. — Masalan, oʻtgan yili yagona energotizimga 154 900 kilovatt-soat miqdoridagi quvvat yetkazib berib, salkam 100 million soʻmlik manfaat koʻrdik.

“Quyoshli xonadon” dasturi doirasida turarjoy binosi tomiga oʻrnatilgan panellarda yaratilgan quvvat bilan oʻz xonadonini toʻla taʼminlab, qolgan qismini sotayotgan chortoqlik Dilmurod Abdullayevning hovlisidagi 20 kilovattlik quyosh panellari hosil qilgan energiya

uning uyini yoritish, televizor, muzlatkich, isitish pechi singari vositalarni ishlatish uchun bemalol yetib ortayotir. Darvoqe, taʼminotchi korxona bilan shartnoma imzolab, keyingi besh oyda unga 3704 kVt-soat ortiqcha energiyani yetkazib berdi.

— 101 isteʼmolchi bilan ana shunday shartnoma tuzganmiz, — deydi “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati Namangand filiali boʻlim boshligʻi Jahongir Xudoyberdiyev. — Keyingi paytlarga ulardan 1,5 million kilovatt-soatdan ortiq energiya qabul qilib oldik, bu 784,5 million soʻmdan koʻproq mablagʻni tashkil etadi.

Ayni chogʻda, “Quyoshli xonadon” dasturiga muvofiq jismoniy shaxslarga yagona energiya tizimiga uzatib berayotgan energiyaning har bir kilovatt-soati uchun Davlat byudjetidan 1000 soʻmdan subsidiya ajratish yoʻlga qoʻyilganligi oʻziga xos manfaatdorlikni shakllantirayotir.

Bundan yuridik va jismoniy isteʼmolchilar tobora koʻproq foydalanayotgan quyosh panellari arzon hamda kafolatlangan energiya manbai sifatida barchaga maʼqul tushayotganini sezish qiyin emas. Viloyatda ayni yoʻnalishda ishlab chiqilgan dasturda sohalar kesimida 3270 ta subyektda salkam 50 ming kVt quvvatga ega shunday manbalarni ishga tushirish moʻljallangan va uning ijrosi nihoyasiga yetkazilayotganligi masalaga aniqlik kiritadi.

Daryo suvi — yorugʻlik manbai

Elektr energiyasi ishlab chiqarishda oqar suv kuchidan foydalanish sohadagi anʼanaviy usul va hozirgi kunda uning ahamiyati yanada kuchaygan. Namanganda ayni maqsadda foydalansa boʻladigan obihayot manbalarini anchagina. Bundan uch yil avval Katta Fargʻona kanalining Uchqoʻrgʻon tumanidan oqib oʻtadigan qismida dastlabki kichik gidroelektrostansiyalar kaskadi ishga tushirilgan edi. Ularning umumiy quvvati 12 megavattga teng boʻlib, hozirgi vaqtda 48 mingta xonadonni uzluksiz elektr energiya bilan taʼminlab kelayotir.

Endilikda Katta Andijon kanalida ham quvvati avvalgidan ikki hissa kuchli uchta GES qurilmoqda. Loyiha



qiymati 60 million AQSH dollari boʻlgan bu inshootlarning umumiy quvvati 18 megavatt boʻlib, qariyb yana 65 — 70 ming xonadonning elektr quvvatiga boʻlgan ehtiyojini qondiradi.

Davlatimiz rahbari qurilishiga start bergan yana bir GESlar kaskadi Norin daryosining Uychi tumanidan oqib oʻtgan qismida barpo etilmoqda. Umumiy quvvati 228 megavatt boʻlgan kaskad

6 ta GESdan iborat. Ushbu istiqbolli loyihaning ishga tushirilishi natijasida yiliga oʻrtacha 1 025 mln. kilovatt-soat ekologik toza elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Mahsuloti oʻrtacha 430 ming xonadonga kirib boradigan kaskad qurilishi toʻrt yilga moʻljallangan.

Barpo etishga kirishilgan inshootning ahamiyatli tomoni shundaki, u respublikadagi birinchi milliy GESga aylanadi, — deb izohlaydi Uychi tumani hokimining birinchi oʻrinbosari Farhod Mamadaliyev. — Sababi loyiha toʻliq “Oʻzbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatining mablagʻlari hisobidan, mahalliy loyihalashtirish va pudrat tashkilotlarini jalb qilgan holda amalga oshirilmoqda. Zarur asbob-uskunalarining barchasi oʻzimizda ishlab chiqariladi.

Darhaqiqat, yuqori innovatsion texnologik qurilmalarning mamlakatimiz

gidroenergetikasida ilk bor amaliyotga joriy etilishi istiqbolda moliyaviy sarf-xarajatlarni iqtisod qilish, sifatli va zamonaviy andozalarga mos agregatlar tayyorlashni oʻzlashtirishga xizmat qilishi bilan eʼtiborni tortadi. Bu esa mamlakatning shu sohadagi salohiyatini yanada oshirib, ekologik toza va arzon elektr quvvatlarini ishlab chiqarish hajmini yanada kengaytiradi.

Qoʻshminorda qoʻsh fotoelektr stansiya

Poytaxt viloyati bilan chegaradosh Pop tumani yer maydonining kattaligi bilan boshqa tumanlardan farqlanadi. Uning hududida qishloq xoʻjaligida foydalanilmayotgan adirliklar ham anchagina.

Shundan kelib chiqib, keng maydonni talab qiladigan quyosh fotoelektr stansiyalarini joylashtirish uchun tumanning Qoʻshminor mahallasi hududi tanlandi. Bu yerda birinchi boʻlib Germaniyaning “Hyper Partners GmbH” kompaniyasi tomonidan 500 megavatt quvvatli stansiya quriladi. Mazkur loyihaning qiymati 350 million dollarga teng, yiliga 1 mlrd. 95 mln. kilovatt-soat energiya ishlab chiqaradi.

Birlashgan Arab Amirliklarining “Tepelen Group Holding Limited” kompaniyasi bilan hamkorlikdagi fotoelektr stansiyasi ham shu hududda barpo etilmoqda. U bitgach quyosh nurlaridan 500 megavatt quvvat hosil qilinadi. Ushbu stansiyalarni joriy yil yakuniga qadar tarmoqqa ulash koʻzda tutilgan. Ahamiyatlisi, ularda 120 kishi uchun doimiy ish oʻrni yaratiladi.

Yuqoridagi uch loyiha ijrosi bilan Namanganning generatsiya quvvatlari 2141 megavattga yetadi, — deydi viloyat hokimining oʻrinbosari Okibjon Inomov. — Bu 7,8 milliard kVt-soatga teng va hududning elektr energiyasiga boʻlgan 5,5 milliard kilovatt-soatlik talabini toʻliq qoplaydi.

Shunday qilib, taraqqiyot tayanchi boʻlgan elektr energiyasi ishlab chiqarishni koʻpaytirishda quyosh va suv beminnat koʻmakchimizga aylanmoqda. Binobarin, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, qolaversa, tabiiy resurslarimiz ham inson qadri, uning manfaatlariga yoʻnaltirilganligi bilan qimmatlidir.

Qudratilla NAJMIDDINOV
(“Xalq soʻzi”).



JSTga a'zolik O'zbekistonga nima beradi?

Mamlakatimizda tovarlar, xizmatlar, kapital va mehnat bozorlarini yanada erkinlashtirish siyosati jadal davom ettirilmoqda. Jumladan, dunyodagi ishlab chiqarish zanjirlariga qo'shilish maqsadida Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a'zo bo'lish uchun katta qadamlar tashlandi. Ushbu yo'nalishda salmoqli natijalarga erishish ustuvor vazifa, deb belgilangan. Bu borada O'zbekistonda ko'riyotgan choralarga hech kim shubha qilmaydi. Buning isboti o'laroq, yurtimizga investorlar dadil kirib kelmoqda. O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zolikka yaqin, degan qarashlar kuchaygan. Bu ko'nglimizni ko'taradigan, o'nlab yillik orzular ro'yobga chiqayotganiga doir mujdalaridir.

Nuqtai nazar

O'tgan yil noyabr oyida JSTning Jenevadagi bosh qarorgohida ishchi guruhning 7-yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda 8 ta mamlakat bilan bozorga kirish bo'yicha hamma shartlar kelishib olindi. Xususan, uzoq davom etgan muzokarlardan keyin Yaponiya, Saudiya Arabistoni bilan tovar va xizmatlar bozoriga chiqish bo'yicha ikki tomonlama muzokarlarni yakunlash to'g'risida bayonnomam imzolangan. Har bir yig'ilish va muzokarani o'tkazish murakkab jarayon. Tashkilotga a'zo bo'lgan qaysi davlat bo'lmasin, ular oxirgi daqiqalargacha muzokaralar olib borib, o'zlarining shartlarini qo'yishga va o'tkazishga harakat qiladi. Bu faqat O'zbekistonga nisbatan emas, balki barcha mamlakatlarga munosabat shunday bo'ladi.



Prezidentimizning o'tgan yil 19-sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasi doirasida Jahon savdo tashkiloti bosh direktori Ngozi Okonjo-Iweala bilan uchrashuvi chog'ida O'zbekistonning tez fursatda JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha ko'riyotgan chora-tadbirlar muhokama qilingan edi. Bosh direktor JST Kotibiyati O'zbekistonning sa'y-harakatlarini to'liq qo'llab-quvvatlashini hamda mamlakatimiz yaqin kelajakda tashkilotga qo'shilishiga ishonch bildirgani ham bejiz emas. Davlatimiz rahbari O'zbekiston o'z oldiga o'rta va uzoq muddatli rivojlanish bo'yicha qo'ygan maqsadlardan kelib chiqqan holda tashkilotga qo'shilish muhim ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidladi.

Demak, marra yaqin, bunday paytda fursatni boy bermaslik, har bir daqiqaning qadriga yetish zarur. JST ma'lum qoidaga asoslangan tizim doirasida savdo jarayonini tartibga solishga yordam beradi, hukumatlar o'rtasidagi savdo bilan bog'liq nizoni xolisona hal etadi, savdo muzokarasini tashkil qiladi. Ushbu faoliyat xalqaro tijorat va savdo siyosatining asosiy huquqiy me'yorlarini o'z ichiga olgan 60 kelishuvga asoslanadi.

164 ta davlat bilan teng huquqli savdo qilish imkoniyati

Mamlakatlar JSTga a'zo bo'lish orqali tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida kamsitilmaydigan, adolatli savdo tizimi, tariflarni himoya qilishning maksimal darajasi va import kvotasi bekor qilinishi, raqobatbardoshlik darajasi oshishi uchun tovarni arzon narxda import qilish kabi muhim afzalliklarga ega bo'ladi. A'zolik yuqorida qayd etilgan afzalliklarni taqdim etishi bilan birga muayyan mamlakat uchun qator majburiyatlar ham belgilaydi. Bu jarayon uzoq muddatli va murakkab muzokara jarayonida erishiladigan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda hayotga joriy etish, inson resursi va institutsional salohiyatni mustahkamlash, sanoat sohasida barqaror rivojlanishga erishish kabi amallarni talab etadi.

Shunga qaramay, O'zbekiston bu yo'ldan dadil boraveradi. Chunki mamlakat 164 ta davlat bilan teng huquqli asosda savdo qilish imkonini qo'lga kiritadi. Tashkilotga a'zo bo'lish orqali shuncha davlat bozoriga kirish imkoniga ega bo'lamiz,

orqali tashqi raqobatbardoshlikni kuchaytirish uchun qulay sharoit hosil bo'ladi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 2-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ham bejiz qabul qilinmadi. Unda muzokara jarayonida erishiladigan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda hayotga joriy etish kabi masalalarga doir ishlar belgilab berilgan.

Qarorning asosiy mohiyati mazkur xalqaro tuzilmaga a'zo bo'lish jarayonini tezlashtirish va sifatli amalga oshirishni ta'minlashga qaratilgan. Shu maqsadda Jahon savdo tashkiloti bilan ishlab bo'yicha idoralararo komissiyaning yangilangan tarkibi tasdiqlandi, Prezident Administratsiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Jahon savdo tashkiloti masalalari bo'yicha maxsus vakili lavozimi tashkil qilindi. JSTga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirish, mas'ul vazirlik va idoralar faoliyati natijadorligini ta'minlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish maxsus vakilning asosiy vazifalari sirasiga kiradi.

Hujjatga muvofiq, Adliya vazirligiga ma'muriy islohotlar doirasida milliy qonunchilikni JST bitimlariga uyg'unlashtirish vazifasi yuklandi. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi markaziy apparatida Jahon savdo tashkiloti bilan ishlab bo'yicha tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonasida JST masalalari bo'yicha birinchi kotib lavozimi kiritildi. 2023-yil 1-iyuldan JST



iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish borasidagi faol islohotdan so'ng 2018-yil mart oyidan O'zbekistonni JSTga qabul qilish jarayoni qayta jonlandi.

Xususan, 2019-yil iyul oyida Tashqi savdo rejimi to'g'risidagi yangilangan memorandum va yana bir necha hujjat, jumladan, tovar va xizmat bozoriga kirish bo'yicha ishlab chiqilgan dastlabki takliflar taqdim etildi. Muhim omillardan yana biri mamlakatimiz tashqi savdo hamkorlarining aksariyati mazkur tashkilotga a'zo davlatlar ekanidir. Ushbu davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatda O'zbekiston uchinchi davlat sifatida ishtirok etishi natijasida mamlakatimizdan eksport qilinadigan tovarlarga nisbatan yuqori boj stavkalari hamda notarif tartibga solish usullari keng joriy etilishining eksport salohiyatiga salbiy ta'siri bartaraf qilinadi.

Bu holatni amaliy raqamlar misolida tahlil etsak. Hozir 204 mamlakat bilan savdo aloqasi yo'lga qo'yilgan. Tashqi savdo aylanmasining salmoqli ulushi aynan JST tarkibiga kiruvchi davlatlarga tegishli. 2023-yil yakuniga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 60 foizdan ko'proqni tashkil qildi. Bunda Xitoy, Rossiya, Qozog'iston,

konferensiyasida qabul qilinadi. Kundalik amalga oshirilayotgan ishlarga Bosh kengash mas'ul. Uning yig'ilishlari tashkilotning ma'muriy qarorgohi joylashgan Shveysariyaning Jeneva shahrida bir yilda bir marta o'tkaziladi. Ularda tashkilotga a'zo mamlakatlar vakillari, elchilar qatnashadi.

Muzokaralar vaqt talab etishining asosiy sababi — JST a'zolari O'zbekistondan ma'lum sektorlarga yoki alohida ishlab chiqaruvchilarga yordam berish uchun qo'llanadigan ko'plab choralarni bekor qilishni kutadi. Ayni chog'da O'zbekiston o'zining milliy manfaatlariga to'g'ri kelmaydigan JST qoidalariga va kodekslaridan ozod qilinishi bo'yicha muzokaralar olib borish imkoniyatidan foydalanadi. Bu a'zolik isloh qilingan iqtisodiyotga foyda keltirishi inobatga olinsa, muzokaralar jarayonida maqbul yechimlarga erishiladi. Bu esa boshlangan katta ishlarning samarali yakunlanishi uchun umid bag'ishlaydi.

Asosiysi, O'zbekiston barcha masalalarni o'zaro tushunish va hurmat ruhida muhokama etish uchun ochiq, konstruktiv muloqot taklif qilib kelayotgani muzokaralarda alohida e'tirof etilyapti. A'zo davlatlar mamlakatimizning bu tashkilotga a'zo bo'lishi uchun ustuvor ahamiyat berish va bu jarayonni tezlashtirish bo'yicha majburiyatini yuqori baholamoqda.

Qonunchilikni takomillashtirish zarurati

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni bizdan qonunchilikni takomillashtirishni ham taqozo etadi. Bu borada parlamentimiz sezilarli qadamlar tashlayapti. Xususan, o'tgan oyda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur huquqiy hujjatni ekspertlar va ommaviy axborot vositalari vakillari JSTga kirish yo'lidagi yana bir muhim qadam sifatida baholamoqda. Qonun bilan "Ixtiralar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi, "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi, "Reklama to'g'risida"gi, "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi va "Davlat boji to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ular Jahon savdo tashkilotining "Intellectual mulk huquqlarining savdo yo'nalishlari bo'yicha bitimi" (TRIPS bitimi) talablariga uyg'unlashtirildi.

Umuman olganda, tashqi savdoda tayyor mahsulot eksportini ko'paytirish orqali mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini oshirish va xalqimiz turmush farovonligini yaxshilashda Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish yanada keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Dunyoning boshqa davlatlari bilan iqtisodiy aloqalarni yanada yaxshilash, tovar ayirboshlash hajmini oshirish, bozor munosabatlarga o'tish jarayonini tezlashtirishga turtki beradi.

To'liq TESHABOYEV,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, professor.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi — amalda

"YOSHLAR HASHARI" START OLDI

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 2024-yil bahor mavsumi davomida Yoshlar ishlari agentligi tomonidan mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda yurtimizning barcha hududida "Yoshlar hashari" — daraxt ekish aksiyasi tashkil etilmogda.

M a z k u r a k s i y a d a 34 mingdan oshiq yoshlar, jumladan, yosh tadbirkorlar, kitobxonlar, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlari, jurnalist va blogerlar, sportchilar, san'atkorlar, "Kelajak liderlari" volontyorlari, talaba hamda yosh olimlar faol qatnashishi ko'zda tutilgan.

Ana shunday tadbirlardan biri, Toshkent shahrining Yangihayot tumanida Marhamat mahallasida bo'lib o'tdi. Unda yurtimizning faol yoshlari ishtirok etib, odamlarning bahridilini ochadigan, poytaxtimizga ayrica go'zallik bag'ishlaydigan daraxt ko'chatlarini ekishda jonbozlik ko'rsatdi.



— 2024-yilgi "Yoshlar hashari" — daraxt ekish aksiyasida dastlab yer maydonlarida sug'orish tizimlari yo'lga qo'yildi, daraxt ekishga tayyorlandi, — deydi Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev. — Joriy yil aksiya davomida 50 gektar maydonga pavlovniya, oqterak, majnunol, gilos, archa, tup kabi 120 ming tup daraxt ko'chati ekilishi rejalashtirilgan.

Hozirgi kunda hududlardagi ekovolontyorlar tomonidan 9 406 ta mahallada 300 ming nafar yosh ishtirokida "Yashil makon chellenji", "Media kislorod", "Yoshlar bog'i", "Yosh ekolog", "Imkoniyati cheklanganlar bog'i", "Bir yoshga bir nihol" kabi tadbirlar, daraxt ko'chatlarini to'g'ri tanlash, ekish, intensiv yetishtirish va sifatli parvarish qilish hamda tabiiy resurslardan unumli foydalanishga qaratilgan o'quv-amaliy seminarlar, treninglar tashkil qilib kelinmoqda.

Rahmatnig BOBOJONOV
("Xalq so'zi").

REKLAMA

"TRASTBANK" XUSUSIY AKSIYADORLIK BANKI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

"Trastbank" xususiy aksiyadorlik banki o'tgan yillar yakunlari bo'yicha bank aksiyadorlarining navbatdagi hamda navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlari bayonnomaga qarolariga ko'ra, bankning oddiy va imtiyozli aksiyalariga hisoblangan dividendlarni o'z vaqtida olmagani aksiyadorlardan dividendlarni olish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni (jismoniy shaxslar uchun — pasport yoki ID kartaning asl nusxasi, STIR nusxasi, bankda yoki boshqa tijorat banklarida hisobvaraq ochilganligi to'g'risida tasdiqnomam nusxasi, investitsiya vositachisi (depozitariy) tomonidan berilgan DEPO hisobvarag'idan ko'chirma, yuridik shaxslar uchun — jamiyat ustavi nusxasi, davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risida guvohnoma nusxasi (litsenziya), investitsiya vositachisi (depozitariy) tomonidan berilgan DEPO hisobvarag'idan ko'chirma) taqdim qilgan holda, bankning bosh ofisiga yoki hududiy bank xizmatlari ofislariga murojaat etishingizni so'raydi.

Shu bilan birga, sizdan investitsiya vositachilari (depozitariylar) ma'lumotlar bazasida o'zingizga tegishli yashash joyi to'g'risidagi (aniq ko'rsatilgan pochta indeksi, ko'cha nomi, uy raqami hamda tezkor bog'lanish imkonini beruvchi telefon raqami) ma'lumotlarni yangilashingizni so'raymiz.

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 6-bob, 51-moddasiga asosan: "Egasi yoki egasining qonuniy huquqiy vorisi yoxud merosxo'r tomonidan uch yil ichida talab qilib olinmagan dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga binoan jamiyat ixtiyorida qoladi".

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun quyidagi manzilga, ya'ni "Trastbank" XAB bosh ofisiga murojaat qilishingizni so'raymiz: 100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 7-uy. Tel.: 1287, 78-140-00-88.

Bankning elektron pochta manzili: info@trustbank.uz

Bankning rasmiy web-sayti: www.trustbank.uz

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142.15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 00.10 Topshirildi — 00.50

1 2 3 4 5 6